

HANIFA MASHABI RIVOJIDA MARKAZIY OSIYODA FAQIHLARNING ROLI VA HISSASI

THE ROLE AND CONTRIBUTION OF CENTRAL ASIAN JURISTS IN THE DEVELOPMENT OF THE HANAFI SECT

РОЛЬ И ВКЛАД ПРАВОВЕДОВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В РАЗВИТИЕ ХАНАФИТСКОЙ СЕКТЫ.

Quvondiqova Dilfuza Asliddinovna

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Samarqand filiali AKT 23.02-guruh talabasi

ANNOTATSIYA:

Hanafiylik mazhabining asoschisi Abu Hanifa hayoti va ta'limoti. No'mon ibn Sobit al-Kufiy Abu Hanifa hayoti va faoliyati. VII va IX asrning birinchi yarmida fiqhda o'ziga xos tushunchalar. Fiqh paydo bo'lishining ilk davri. Iroq maktabi yana "mustaqil fikr yuritish tarafdorlari" (ashob-ar-ra'y), Madina maktabi "hadis tarafdorlari" (ashobul-hadis), deb yuritiladi. Ular orasidagi farq - maktablar o'z aqidalarini rivojlantirgan moddiy va madaniy sharoit xususiyatlari hamda ularga meros bo'lib qolgan huquqiy an'analar. Markaziy Osiyoda faqihlarning roli va hissasi.

KALIT SO'ZLAR: Hanifalikning kirib kelishi, Fiqh, Hanifalik, Hadislar, Hanifa hayoti va ta'limoti.

Hanafiylik mazhabining asoschisi Abu Hanifa hayoti va ta'limoti. No'mon ibn Sobit al-Kufiy Abu Hanifa hayoti va faoliyati VII va IX asrning birinchi yarmida fiqhda o'ziga xos tushunchalar, ifoda - til va uslubiyat shakllandi. Fiqh paydo bo'lishining ilk davridayoq, ikki yo'nalish maydonga chiqq boshladi. Ulardan biri Iroq maktabi bo'lib, u yana "mustaqil fikr yuritish tarafdorlari" (ashob-ar-ra'y), ikkinchi - Madina maktabi esa "hadis tarafdorlari" (ashobul-hadis), deb yuritiladi. Ular orasidagi farq - maktablar o'z aqidalarini rivojlantirgan moddiy va madaniy sharoit xususiyatlari hamda ularga meros bo'lib qolgan huquqiy an'analar bilan belgilanadi. "Ashob ar-ra'y"ning yorqin vakili, hanafiy mazhabi asoschisi Imom A'zam Abu Hanifa (r.a.) hisoblanadi.

Hanafiya Islomdagi eng ko'p tarqalgan mazhabdir. Uning asoschisi Abu Hanifa 699-767 yillarda yashagan. Ma'lumki, huquqshunoslik markazlaridan biri Iroqdagi Kufa



shahri bo'lgan, Payg'ambarimizning sahobalari Abdulloh ibn Mas'ud 653- yilda vafdot etgan, u yerga faqih va muallim sifatida Xalifa Umar tomonidan yuborilgan edi. Uning talabalari fuqaho sifatida tan olindi va ularning eng mashhurlaridan biri Hammod ibn Abu Sulaymon (738 y.) mazkur mazhabga nom bergan Abu Hanifaning ustozlari bo'lgan.

Abu Hanifa kufalik bo'lib, o'zining ismi No'mon ibn Sobit edi. O'ziga to'q ipak sotuvchi xonadonida tavallud topgan. A'lo ta'lim olib, yoshligida so'nggi sahobalarning suhbatini olgan. 22 yoshida mashhur huquqshunos Hammod ibn Abu Sulaymonning shogirdi va uning davrasida 18 yil tahsilda bo'ladi. Ustoz vafotidan so'ng 10 yil davomida ushbu to'garakka rahbarlik qiladi. U Kufa va Basraning eng obro'li faqih hisoblangan. 747-748 yili uni davlat xizmatiga chorlagan Iroq hokimining zulmidan qochib, Makkaga ko'chib o'tadi. Hokimiyatga Abbosiylar kelgach, Iroqqa qaytadi va boy tojir hamda nufuzli olim sifatida hayot kechiradi. Xalifa Mansur (754-775) Bag'dodda unga qozi yoki boshqa yuksak martabani egallashni taklif etganida qat'iy rad javobini beradi. Xalifa uning irodasini bo'ysundirish uchun yoshi va obro'siga ham qaramay, qamoqqa tashlaydi, hatto savalashga buyuradi. Oradan ko'p o'tmay, Abu Hanifa olamdan o'tadi.¹

O'rta Osiyoga fiqh ilmini birinchilardan bo'lib Abu Hafs Kabir rohmatallohi alayh olib kirganlar. U zotning qo'lida ko'pgina faqihlar va olimlar yetishib chiqdi. Hatto tarixchilarning ta'kidlashlaricha, Buxoroda ilmning tarqalishiga, imom va ulamolarning hurmat topishiga sababchi bo'lgan kishi Abu Hafs Kabir rohmatallohi alayh bo'lgan.

Abu Hafs Kabir rohmatallohi alayh hanafiy mazhabining fiqhini O'rta Osiyo va Movarounnahrda tarqalishida jonbozlik ko'rsatgan bo'lsa, uning oilasi, xususan, o'g'li Abdullohning bu borada xizmati buyuk bo'lgan. Shuning uchun ham uni Abu Hafs Sag'ir, ya'ni kichik Abu Hafs deb atashgan. Abu Hanifa rohmatallohi alayh asos solgan mazhab VIII asr o'rtalarida, uning hayotlik chog'idayoq tarqala boshlab, shu asrning oxirlarida uzoq-yaqin, jumladan, O'rta Osiyo va Movarounnahrda yetib kelgan edi. Muhammad ibn Hasan Shayboniy rohmatallohi alayhning mumtoz shogirdlaridan biri bo'lmish Abu Hafs Ahmad ibn Hafs al-Kabir al-Buxoriy (832yil) rohmatallohi alayh birinchi bo'lib, IX asr boshlarida ushbu mazhab ta'limotining haqiqiy tashuvchisi sifatida o'z vataniga qaytib keldi. Buxoro shahrini Hanafiylikning muhim markazlaridan biriga aylantirdi. Uning tarbiyasi otasida bir

¹ Аминов Х., Примов С. Ханафий фикхи тарихи, манбалари ва истилохлари.Т.: "Мовароуннахр", 2017.



guruh faqihlar, jumladan, o`z davrida Hanafiy mazxabining shayxi va salohiyatli vakili bo`lgan uning o`gli Abu Hafs Sag`ir Muhammad ibn Ahmad ibn Hafs rohmatallohi alayh yuksak darajali faqih martabasiga yetgandir. Imomi A`zam Abu Hanifa rohmatallohi alayhning ta`limoti bilan tanishdi va safarining samarasi o`laroq u zotning so`zlari va fatvolarini o`z yurtiga olib keldi. Shu tariqa Xuroson va Movarounnahr hududlari Abu Hanifa rohmatallohi alayhning ta`sirida shakllangan alohida ta`limotni qabul qildi.

Hanafiy mazhabi tarqalishi jarayoniga dastlab, Balx va Ray` shaharlarida asos solindi. 142/759-760 yildayoq Abu Hanifa rohmatallohi alayhning shogirdlaridan biri Abu Bakr ibn Abdulloh Umar ibn Ahmad ibn Dovud (vaf. 171/787-788) rohmatallohi alayh Balx shahri qozisi bo`lgan. Hatto uning vafotidan keyin ham hanafiylar u yerda o`z ta`sirini saqlab turdi. Abu Hanifa rohmatallohi alayh asos solgan hanafiylik mazhabi VIII asrning o`rtalarida, keng tarqala boshlab, shu asrning oxirlarida uzoq-yaqin o`lkalarga, jumladan Movarounnahrqa yetib kelgan edi. Turli shaharlardagi hanafiy markazlarining shakllanishiga Iroq, Xuroson maktablarining ta`siri salmoqli bo`ldi. Muhammad ibn Hasan Shayboniy rohmatallohi alayh (vaf. 805 y.) ning shogirdi Abu Hafs Ahmad ibn Hafs al-Kabir al-Buxoriy rohmatallohi alayh (150/768-216/832) Buxoro maktabiga asos soldi. U zotning to`liq ismi sharifi-Ahmad ibn Hafs ibn Zaburqon ibn Abdulloh ibn Buxoriy. U zot o`z yurtida egallashi mumkin bo`lgan barcha ilmlarni puxta o`zlashtirgach, Bag`dod sari yo`l oldilar. U yerda Imom Muhammad rohmatallohi alayhdan hanafiylik mazhabi fiqhini o`zlashtirgach, yana o`z yurtlariga qaytib keladilar. Shu bois, u zot hanafiylik ta`limotini birinchi bo`lib Movarounnahrqa olib kekgan shaxs sifatida ma`lum va mashhurdir.²

Abu Hafs Ahmad ibn Hafs Kabir Buxoriy rohmatallohi alayh Buxoroda ilmiy va diniy bilimlar rivojiga katta hissa qo`shgan madrasaga asos soldilar. Sharqshunos olim Anas Boqiyevich Xolidov butun arab saltanati hududida ilk bora Movarounnahr va Xurosonda madrasalar barpo etilganin zikr etib, birinchi madrasa Buxorodagi "Farjak" madrasasi degan fikrni ilgari suradi. Ushbu madrasa 937-yili yong`in natijasida yonib ketgan. Shuningdek, Nojiy Ma`rufning tadqiqotiga tayangan holda "Nishopur, Buxoro, G`azna va Bushanjda Bag`doddagi birinchi madrasa barpo etilgunga qadar 33 ta madrasa mavjud bo`lgan", degan ma`lumotni keltiradi. Buxorodagi Abu Hafs Kabir madrasasi o`z zamonasida mashhur

² Sobir Elmurodov. Mustaqil O`zbekiston va Dunyo davlatlari. Toshkent. 2016-yil 364-bet.



madrasalardan sanalgan. Tarixchi Vamberi o'zining "Tarixi Buxoro" va As-Sa'diy "Tarix ad-Duval" nomli asarlarida Imom Abu Hafs Kabir Buxoriy rohmatallohi alayhning madrasasi islom olamining turli o'lkalaridagi olimlar va talabalar orzu qilgan eng yaxshi madrasa bo'lganini ta'kidlashgan. Abu Hanifaning metodi shundan iborat ediki, u xulosalarni chiqarishda dastlab Qur'on Karim, keyin Payg'ambar sunnati va uning safdoshlarining qilgan ishlariga asoslanar edi. Xatib al-Bog'dodi "Bog'dod tarixi" asarida Abu Hanifaning aytgan so'zlarini keltiradi: "Men ko'rsatmalarni Allohning kitobiga va Payg'ambarning sunnatiga asoslanib beraman. Agar fiqhiy ko'rsatmalar uchun dalil topa olmasam, unda Payg'ambar safdoshlarining aytgan gaplariga murojaat etaman. Men ulardan chetga chiqmagan holda foydalanaman. Ular o'rtasida farqlarni ajratmayman".

Abu Hanifa yashagan davrga kelib musulmon jamoasi ancha taraqqiy etgan va ba'zi masalalar muqaddas kitobda ham yoritilmaganligi uning bu fikrlarga nisbatan analogik yondashish metodini kiritishga sabab bo'lgan.

XULOSA: Abu Yusuf Abu Hanifadan uzoq vaqt tahsil olgan. Shu bois uning uning ijtimoiy-siyosiy qarashlariga ta'sir o'tkazgan. Abu Yusuf ustoz kabi ra'y va qiyos tarafdori sifatida iqtisodiy masalalarni yechishda aql-idrokka tayanganligi bilan mashhurdir. Uning "Kitob ul-xaroj" davlatni adolatli boshqarish va rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va iqtisodiy mexanizmlarini ifodalaydigan qomusiy asardir. Bu asar mamlakatda notinchlik, tartibsizlik va zo'ravonlikni bartaraf etish, aholiga tinchlik va totuvlik olib kelish maqsadida yozilgan. Boshqacha qilib aytganda, Abu Yusufning xalifaga siyosiy va huquqiy ko'rsatmalari Abu Hanifa fiqhiy qarashlarining g'oyaviy davomidir.³ Xulosa qilib shuni aytib o'tish lozimki, hanafiylik mazhabining keng tarqalishi Abu Hanifa va uning shogirdlari orqali amalga oshirildi. Bunda uning ikki shogirdi Abu Yusuf va Muhammad ash-Shayboiyning hissalar ko'proqdir. Aynan ularning xalifalikning bosh qozisi lavozimida ishlaganligi tufayli hanafiylik nazariyadan amaliy hayotga tatbiq etildi va xalifalik bo'ylab keng tarqalishiga sabab bo'ldi.

³ Абдулҳаким Шаръий Жузжоний. Ислом ҳуқуқшунослиги, Ҳанафий мазхаби ва Ўрта Осиё фақиҳлари. Тошкент: Тошкент ислом университети, 2002.



FOYDALANGA ADABYOTLAR

1. Абу Йусуф Йакуб б. Ибрахим ал-Куфи. Китаб ал-Харадж (Мусульманское налогообложение) / Пер. с арабского и комментарии А. Э. Шмидта. Супракомментарии к переводу А. С. Боголюбова. Подготовка к изданию, вступит. статья и указатели А. А. Хисматулина. СПб., 2001.
2. Доктор Мустафо Шакъа. Буюк имом Абу Ҳанифа Нўъмон. - Самарканд, "Имом Бухорий халқаро маркази нашриёти". 2019.
3. Абдулҳаким Шаръий Жузжоний. Ислом ҳуқуқшунослиги, Ҳанафий мазхаби ва Ўрта Осиё факихлари. Тошкент: Тошкент ислом университети, 2002.
4. Аминов Х., Примов С. Ханафий фикхи тарихи, манбалари ва истилоҳлари. Т.: "Мовароуннаҳр", 2017.
5. Қодиров М. Марказий Осиё, Якин ва Ўрта Шарқнинг фалсафий тафаккури. -Тошкент, 2009.
6. Muhammad Abu Zahra. Imam Abu Hanifa His life, opinion and Figh. 2017.
7. Айдарбек Тулепов. Ислом ва ақидапараст оқимлар. Т.: "Шарк" НМАК, 2013.
8. www.Vikipedia.uz.
9. www.adu.uz.
10. Samarov K. Issues Naqishbandi teaching peace and harmony in society//Theoretical Applied Science 2 (2016): 175-179.
11. Samatov K (2016) Issues Naqishbandi teaching peace and harmony in society. "Theoretical Applied Science, (2) 175-179.

